O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

B.A.Solikov

2025-yil “__”

Ro‘yxatga olindi № BD-61010100-1.20

2025-yil “__”

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo‘stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi BHI1506	O‘quv yili 2027-2028	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 5

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Buxgalteriya hisobi va audit**	72	108	180

2

I. Fanning mazmuni

Ushbu dastur buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar va moliyaviy natijalar hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish, shuningdek auditning nazariy, tashkiliy-huquqiy asoslari hamda korxona faoliyatining auditorlik tekshiruvi, uning natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va tadbiq etish masalalarini qamrab oladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – “Buxgalteriya hisobi va audit” fanining asosiy maqsadi bo‘lib bakalavrlarni buxgalteriya hisobi va auditning mohiyati, predmeti, obyektlari, usul va uslublari, tamoyillari bilan chuqur va har tomonlama tanishtirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi - talabalarga korxonalar aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, moliyaviy natijalari ko‘rsatkichlari hisobi va auditining nazariy asoslari bo‘yicha bilimlarni va ko‘nikmalarni berishdan, ularda yetarli amaliy tajribalarni shakllantirishdan iboratdir.

II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

O‘qish moduli

1 - mavzu. “Buxgalteriya hisobi” faniga kirish.

Buxgalteriya hisobining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Xo‘jalik hisobi to‘g‘risida tushuncha va uning turlari. Xo‘jalik hisobi turlarida qo‘llaniladigan o‘lchov birliklari.

2 - mavzu. Fanning predmeti va usullari.

“Buxgalteriya hisobi”ning predmeti va asosiy vazifalari. Buxgalteriya hisobining obyektlari va subyektlari. Xo‘jalik mablag‘larning tarkibi va ishlab chiqarish jarayonidagi funksional roli bo‘yicha turkumlanishi. Mablag‘larning vujudga kelish manbalari va maqsadli tayinlanishi bo‘yicha turkumlanishi. Buxgalteriya hisobining konseptual asoslari.

3 - mavzu. Buxgalteriya balansi.

Buxgalteriya balansi haqida tushuncha, uning tuzilishi, mazmuni va ahamiyati. Xo‘jalik muomalalari ta’sirida balansda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar. Buxgalteriya balansi turlari.

4 - mavzu. Xo‘jalik operatsiyalarida ikkiyoqlama yozuv.

Buxgalteriya hisobi schyotlari, ularning tuzilishi va turkumlanishi. Ikkiyoqlama yozuv. Ikkiyoqlama yozuvning nazorat qilish xususiyatlari. Sintetik va analitik (tahliliy) hisob. Joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish. Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi.

5 - mavzu. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish.

Biznes jarayonlari ahamiyati. Qiymat o'lchovining mohiyati va ahamiyati. Ta'minot jarayonining hisobi. Ishlab chiqarish jarayonining hisobi. Sotish jarayonining hisobi.

6 - mavzu. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya.

Hujjatlar va ular haqida tushuncha. Hujjatlarning turlari. Hujjatlar rekvizitlari va ularni rasmiylashtirish. Hujjatlarning aylanishi. Inventarizatsiya haqida tushuncha, uning ahamiyati va turlari. Inventarizatsiya o'tkazish va natijasini rasmiylashtirish tartibi.

7 - mavzu. Buxgalteriya hisobi registrlari va shakllari.

Buxgalteriya hisobi registrlari haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Buxgalteriya hisobi registrlarining turlari, ularni yuritish tartibi. Buxgalteriya hisobi registrlaridagi xato yozuvlarni tuzatish tartibi. Buxgalteriya hisobining shakllari.

8 - mavzu. Buxgalteriya hisoboti.

Buxgalteriya hisobotining maqsad va vazifalari. Buxgalteriya hisobotlarini tuzish tartibi. Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish.

9 - mavzu. Buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish.

Buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va ahamiyati. Buxgalteriya hisobiga rahbarlik qilish. Buxgalteriyada ishni tashkil qilish. Korxona hisob siyosati.

10 - mavzu. Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobi.

Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining vazifalari. Kassa muomalalarini hisobga olish. Kassadagi naqd pullarni inventarizatsiya qilish va natijalarini rasmiylashtirish tartibi. Banklarda hisob-kitob schyotlarini ochish tartibi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish shakllari. Hisob-kitob va chet el valyutasi schyotlaridagi pul mablag'lari bo'yicha muomalalar hisobi. Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablaglari hisobi.

11 - mavzu. Mehnat va ish haqi hisobi.

Mehnat va ish haqini hisobga olishning asosiy vazifalari. Mehnatga oid munosabatlarni tartib solish. Mehnatga haq to'lashni tashkil etish tizimlari va shakllari. Mehnat haqi hisoblashni hujjatlashtirish. Ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash. Jismoniy shaxslarning ish haqidan ushlanmalari hisobi. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobi. Xodimlar bilan boshqa muomalalar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi.

12 - mavzu. Tovar-moddiy zahiralar hisobi.

Tovar-moddiy zahiralar hisobini tashkil etish. Tovar-moddiy zahiralarni turkumlash va baholash. Tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tizimlari. Materiallar kirimi va sarflanishini hisobga olish hamda hujjatlashtirish. Inventar va xo'jalik jihozlari hisobining xususiyatlari. Qayta ishlashga berilgan xom

ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi. Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi.

13 - mavzu. Investitsiyalar hisobi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobini tashkil etish. Investitsiyalarni turkumlash va baholash. Uzoq muddatli investitsiyalar hisobini yuritish tartibi. Qisqa muddatli investitsiyalar hisobi. Dividendlar hisobi. Kapital qo'yilmalar hisobi.

14 - mavzu. Audit fanining predmeti va metodi, uning mohiyati, maqsadi va vazifalari.

Auditning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi haqida. Audit fanining predmeti va obyektlari, mohiyati, maqsadi va vazifalari. Audit fanining metodi va metodologiyasi. Audit fanida xususiy usullarning qo'llanilishi. Kompyuter va ekspertlardan foydalanilganda audit uslublari. Auditning zarurligi va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari.

15 - mavzu. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari.

O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari. Auditorlik faoliyatining standartlari. Auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi. Audit fanida xususiy usullarning qo'llanilishi. Kompyuter va ekspertlardan foydalanilganda audit uslublari.

16 - mavzu. Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari.

Auditorlik xizmati va uni turkumlash. Ichki va tashqi auditni tavsifi. Majburiy auditorlik tekshiruvi. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra audit o'tkazish xususiyatlari. Auditorlik tashkilotlarining proffessional xizmati.

17 - mavzu. Uzoq muddatli va joriy aktivlar auditi.

Uzoq muddatli aktivlar auditida foydalaniladigan ma'lumotlar manbalari. Uzoq muddatli aktivlar audiauditning vazifalari. Asosiy vositalar auditi xususiyatlari va undagi audit amallari. Uzoq muddatli investitsiyalar auditi. Nomoddiy aktivlar auditi xususiyatlari va undagi audit amallari. Tovar-moddiy zahiralar auditi xususiyatlari va undagi audit amallari. Pul mablag'lari auditi xususiyatlari va undagi audit amallari.

18 - mavzu. Xususiy kapital auditi va moliyaviy natijalar auditi.

Xususiy kapital auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Fondlar va zaxiralarni tashkil etish va ulardan foydalanish auditi. Ishlab chiqarish xarajatlari auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar hisobini tekshirish. Mehnatga haq to'lash xarajatlarini mahsulot tannarxiga qo'shishni tekshirish. Yordamchi va tugallanmagan ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni tekshirish. Davr xarajatlarining auditi. Umum ishlab chiqarish xarajatlarining auditi. Tayyor mahsulotlar auditining vazifalari va manbalari. Ishlab chiqarishdan tayyor

mahsulotlarni chiqarishning auditi. Tayyor mahsulotlarni jo'natilishi va sotilishini auditi. Moliyaviy natijalar auditining maqsadi, tashkil etish va o'tkazish ketma-ketligi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. "Buxgalteriya hisobi va audit"ning predmeti va asosiy vazifalari.
3. Buxgalteriya balansi haqida tushuncha, uning tuzilishi, mazmuni va ahamiyati.
4. Buxgalteriya hisobi schyotlari, ularning tuzilishi va turkumlanishi.
5. Biznes jarayonlari ahamiyati.
6. Hujjatlar va ular haqida tushuncha.
7. Buxgalteriya hisobi registrlari haqida tushuncha va ularning ahamiyati.
8. Buxgalteriya hisobotining maqsad va vazifalari.
9. Buxgalteriya hisobi bo'yicha jamoat tashkilotlari, ularning roli va ahamiyati.
10. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va ahamiyati.
11. Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining vazifalari.
12. Mehnat va ish haqini hisobga olishning asosiy vazifalari.
13. Tovar-moddiy zahiralar hisobini tashkil etish.
14. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobini tashkil etish.
15. Audit fanining predmeti va obyektlari, mohiyati, maqsadi va vazifalari.
16. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari.
17. Auditorlik xizmati va uni turkumlash. Ichki va tashqi auditni tavsifi.
18. Uzoq muddatli aktivlar auditida foydalaniladigan ma'lumotlar manbalari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. **"Buxgalteriya hisobi"ning predmeti va asosiy vazifalari haqida yozma hisobot tayyorlash.**
   Bajarilish tartibi: "Buxgalteriya hisobi"ning predmeti va asosiy vazifalarini sanab o'tish. "Buxgalteriya hisobi"ning predmetini aniqlash.
2. **Buxgalteriya balansi haqida tushuncha, uning tuzilishi, mazmuni va ahamiyati mavzusida taqdimot tayyorlash.**
   Bajarilish tartibi: Buxgalteriya balansi orqali nimani o'rganish mumkinligi haqida va uning tuzilishi, mazmuni va ahamiyati aks ettirilgan taqdimot tayyorlash.
3. **Xo'jalik operatsiyalarida ikkiyoqlama yozuv mavzusini tahlil qilish.**
   Buxgalteriya hisobi schyotlari tuzilishi va turkumlanishini tahlil qilish. Ikkiyoqlama yozuv hamda Ikkiyoqlama yozuvning nazorat qilish

xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish. Sintetik va analitik (tahliliy) hisob o'rtasidagi farqni taqqoslash.
Bajarilish tartibi: Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini tahlil qilish, Ikkiyoqlama yozuv.

4. **Biznes jarayonlarining turlari haqida va ularni hisobga olishda qiymat o'lchovining ahamiyati haqida taqdimot tayyorlash.**
Bajarilish tartibi: Ta'minot jarayonining hisobi, ishlab chiqarish jarayonining hisobi va sotish jarayonining hisobini yuritishda qiymat o'lchovlarini aniqlash.

5. **Hujjatlashtirish va inventarizatsiya haqida referat tayyorlash.**
Bajarilishi: Hujjatlar va ular haqida tushuncha. Hujjatlarning turlari. Hujjatlar rekvizitlari va ularni rasmiylashtirish. Hujjatlarning aylanishi. Inventarizatsiya haqida tushuncha, uning ahamiyati va turlari. Inventarizatsiya o'tkazish va natijasini rasmiylashtirish tartibi.

6. **Buxgalteriya hisobi registrlari va shakllari mavzusida slayd tayyorlash.**
Bajarilishi: Buxgalteriya hisobi registrlari haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Buxgalteriya hisobi registrlarining turlari, ularni yuritish tartibi. Buxgalteriya hisobi registrlaridagi xato yozuvlarni tuzatish tartibi. Buxgalteriya hisobining shakllari.

7. **Buxgalteriya hisoboti va buxgalteriya hisobi xizmati haqida hisobot tayyorlash.**
Bajarilishi: Buxgalteriya hisobotining maqsad va vazifalari haqida hisobot orqali buxgalteriya hisobotlarini tuzish tartibi, buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish kabi tushunchalarni Buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va ahamiyati. Buxgalteriya hisobiga rahbarlik qilish. Buxgalteriyada ishni tashkil qilish. Korxona hisob siyosati.

8. **Tashqi ta'sirlar va bozor muvaffaqqiyatsizliklarini misollar orqaloi o 'rganish va tahlil etish.**
Bajarilishi: Tashqi ta'sirlar tushunchasi. Bozor muvaffaqqiyatsizligi haqida. Tashqi ta'sirlar bozor narxini noto'g'ri aks ettirishi. Ijtimoiy foyda va xususiy foyda o'rtasidagi farqlar.

9. **Ishlab chiqarish xarajatlari: doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar mavzusida taqdimot tayyorlash.**
Bajarilishi: Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi. Umumiy xarajatlar. Aralash xarajatlar haqida tushuncha. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning farqlari.

10. **Monopsoniya va uning mehnat bozoriga ta'siri haqida hisobot va prezentatsiya tayyorlash.**
Bajarilishi: Monopsoniya tushunchasi va uning mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilish. Monopsoniya holatidagi bozor misollarini keltirish.

11. **Iqtisodiyotda ishchi kuchi, kapial tushunchasi va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni mavzusida tadqiqot olib borish.**
Bajarilishi: Ishchi kuchi va kapitalning iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash. Ischi kuchi turlari. Kapital turlari. Ishchi kuchi va kapitalning birgalikdagi ta'siri.

12. **Real iqtisodiy voqealarni tahlil qilish.**
Bajarilishi: COVID-19 pandemiyasining O'zbekistondagi kichik va o'rta

	bizneslarga ta'siri haqida iqtisodiy tahlil olib borish. Qanday iqtisodiy o'zgarishlar yuz bergani, uning ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlagan holda hisobot tayyorlash. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma asosida bajariladi.
3	**IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - korxonalarni boshqarish, uning oldiga qo'yilgan reja ko'rsatkichlariga doir vazifalarni bajarish maqsadida xo'jalik faoliyati ustidan kundalik kuzatib borishni talab qiladi. Bunday kuzatish va boshqarish xo'jalik hisobi yordamida amalga oshiriladi. - buxgalteriya hisobi va audit fanini o'rganishda talaba buxgalteriya yozuvlarini yuritish, balans va moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda ularni tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, audit jarayonida hujjatlar bilan ishlash, ularni tekshirish va hisob-kitoblarda qonunchilik talablariga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi; - mazkur fan natijasida talaba moliyaviy axborotni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, hisobotlar asosida xo'jalik qarorlarini asoslash, audit orqali moliyaviy intizomni baholash hamda amaliyotda bu bilimlarni qo'llash kompetensiyalariga ega bo'ladi. - talaba moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish, balans va hisobotlarni tayyorlash, xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, audit orqali moliyaviy intizomni baholash hamda amaliyotda bu bilimlarni tatbiq etish malakasiga ega bo'ladi.
4	**V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • videokonferensiyalar; • taqdimotlar tayyorlash; • tezkor savol-javoblar o'tkazish; • guruh bo'lib ishlash; • mavzularga doir Moodle, Quizlet va boshqa platformalarda test ishlash; • online guruhlarda loyilalar yaratish; • mantiqiy fikrlash
5	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy darslarda faol va to'liq qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini a'lo darajada bajarish va hisobot topshirish, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. Toshmamatov N., Kamolov X., Nosirov I., Toshmamatov S. AUDIT: o'quv qo'llanma. – Andijon – 2018, – 374 b.

	2. Buxgalteriya hisobi 1-qism: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. b. 3. Р.Абдуллаев, К.Урозов. Основы бухгалтерского учета. Учебное пособие. Самарканд-2021, 168 с. **Qo'shimcha adabiyotlar** 4. Bakieva X., Rizaev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2008 y. 5. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2013 y 6. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007 y. **Axborot manbaalari** 7. www.imf.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi) 8. www.ziyonet.uz (Axborot ta'lim tarmog'i) 9. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazas i) 10. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi) 11. www.accountingtools.som (Buxgalterlar uchun qo'llanmalar sayti) 12. www.ifrs.org (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi sayti) 13. www.norma.uz
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "____" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** R.I. Pardayev - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** **F.R. Xalimova** – SamDChTI, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. professori, DSc. **A.B. Shakarov**– SamISI "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti